

## BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHISINING KASBIGA DOIR KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11633824>

**Mo'ydinova Durdona Qahramonjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi

### **Annotatsiya**

*mazkur maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiya darajasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, bo'lajak o'qituvchilarning kompetensiyasini shakllantirishga va uni rivojlantirishga xizmat qiladigan omillar haqida so'z boradi. Shuningdek, hozirgi kunda uning zaruriyat ekanligi hamda bo'lajak o'qituvchining kompetensiya darajasini yuksak darajada shakllantirish orqali malakali kadrlarni tayyorlashga ehtiyoj yanada kuchaymoqda.*

### **Kalit so'zlar**

*bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kompetentlik, kommunikativlik, triada va sikstet, motivatsion omil, amaliy-predmetli omil, hissiy omil.*

## СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

### **Аннотация**

*в данной статье говорится о педагогических возможностях формирования уровня профессиональной компетентности будущего педагога, реформах, реализуемых в этом направлении, факторах, служащих формированию и развитию компетентности будущих учителей. Также в наше время существует необходимость и возрастает потребность в подготовке квалифицированных кадров путем формирования уровня компетентности будущего учителя на высоком уровне.*

### **Ключевые слова**

*знания, умения, компетентность, компетентность, компетентность, коммуникативность, триада и секстет, мотивационный фактор, практико-предметный фактор, эмоциональный фактор.*

## THE CONTENT OF FORMING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF EDUCATION

## Abstract

*this article talks about the pedagogical possibilities of forming the level of professional competence of the future education teacher, the reforms being implemented in this regard, the factors that serve to form and develop the competence of future teachers. Also, nowadays it is a necessity and the need to train qualified personnel by forming the level of competence of the future teacher at a high level is increasing.*

## Key words

*knowledge, skills, competence, competence, competence, communicativeness, triad and sextet, motivational factor, practical-subject factor, emotional factor.*

## KIRISH

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimimiz jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va yosh avlodga yuksak malakaga ega bo'lgan o'qituvchi, muallimlar tomonidan ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 28.12.2017 yildagi 1026-son «Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» o'qituvchilarning kasbiy malakasini yanada oshirish va uni amaliyotga oqilona tatbiq etish maqsadida qaror imzolangan. Asosan, unga ko'ra yuqori malakali o'qituvchi-hodimlarni tayyorlash nazarda tutilgan. Shu bilan birga bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisiga ham kreativ fikrli, yuksak salohiyatli, tashabbuskor, etik-estetik jihatdan yetuk bo'lish va albatta, kasb kompetensiyasini ma'lum darajada rivojlantirish bo'yicha bir qancha talab va istaklar mavjud. Aynan ushbu talab va istaklardan kelib chiqqan holda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'zining kompetensiyasini pedagogik texnologiyalarga mos ravishda rivojlantirishi, undan kasb faoliyatlarida unumli foydalanishi maqsadga muvofidir. Zero yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, uni barkamol avlod sifatida yetuk qilish, albatta kompetensiya darajasi yuksak bo'lgan malakali pedagog kadrlarga bog'liq.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avvalo, "kompetensiya" so'zining mazmun mohiyatini anglab olishimiz darkor. Bilamizki, "kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati". "Kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka»ni oltita

birlik (sikstet) – «Bilim – Koʻnikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi». [1] Ushbu omil boʻlajak tarbiya fani oʻqituvchisining kelgusi kasb faoliyatida qoʻl keladigan muhim omil sanaladi desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi. Chunki tarbiya fani oʻqituvchisining kompetensiyasi oʻquvchilarga taʼlim- tarbiya berish jarayonlarini samarali qilish bilan chambarchas bogʻliq. Bu oʻquvchilarning maʼlumotlarini oshirish, ularni qiziqtirish va taʼlim jarayonini mazmunli qilishda muhimdir.

A.A. Derkach tomonidan kasbiy muloqotdagi kompetentlikning

- kommunikativlik yoki muloqotchanlik kompetentligi (kasbdoshlar bilan muloqot qila olish qobiliyati),

- ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilish va baholay olish qobiliyati), differensial va psixologik kompetentlik (insonlar oʻrtasidagi individual psixologik tafovutlarni farqlay olish),

- diagnostik kompetentlik (boshqa kishilarga xos boʻlgan xususiyatlarni oʻrganish qobiliyati),

- axloqiy kompetentlik (shu kasb taqozo etadigan odob-axloq normalariga rioya qilish),

- empatik kompetentlik (jamo aʼzolariga hamdard boʻla olish, ularni toʻgʻri tushunish va boshqa tarkibiy qismlari ajaratib koʻrsatilgan.

Mutaxassisning ijtimoiy-perseptiv kompetentligi xususiyatlarining tuzilishi:

- boshqa kishilarni idrok qilish, tushunish va baholashning aniqliligi;

- ijtimoiy subʼyektlar bilan tizimli munosabat oʻrnata olish qobiliyatining mavjudligi;

- idrok qilinayotgan shaxsning xulq-atvori va xususiyatlarini fikran adekvat tarzda modellashtira olish;

- shaxslararo baholash jarayonida turli mezonlardan foydalana olish va boshqalar. [2]

Pedagogik kasb kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat bizning mamlakatimizda balki, butun dunyo olim va mutafakkirlari oʻrtasida ilmiy izlanishlar va munozaralarga sabab boʻlmoqda. “V.Slastenin, I.Isaev va boshqalar tomonidan yozilgan “Pedagogika” oʻquv qoʻllanmasining 3-bobi “Pedagogning kasbiy kompetensiyasi”ga bagʻishlanib, bu tushuncha va mahorati haqida fikrlar beradi. Mualliflarning taʼkidlashicha, pedagogika kompetensiya tizimi, amaliy va nazariy tayyorgarligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish kompetentlikni talab qiladi. Bu oʻzida oʻqituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi.” [3]

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagog o'z kasb sohasini yaxlit biladigan, tajribaga ega bo'lgan kadr sifatida faoliyat olib borishi uning kompetensiyasiga uzviy bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugung kunda bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda o'qitish texnologiyasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'quv darsliklari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini tarkib topishi hamda kasbni egallashda faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy, va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi esa kompetensiya darajasidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga bilim berish bilan bog'liq yirik vazifalardan birini o'z ichiga oladi. "Kompetensiya" atamasi "erishaman, to'g'ri qilaman" degan ma'nolarini anglatar ekan, sub'yektning maqsad qoyishi va unga erishishi, tashqi va ichki zaxiralarni samarali tashkil eta olishga xizmat qiladi. bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatar ekan, bular:

1) motivatsion omil – o'quv hamda kasbiy harakatlarni eski qarashlardan holi bo'lgan holda amalga oshirishga intilish, ijodiy qiyinchiliklarga tayyor bo'lish hamda bu boradagi yutuqlarga, ijodiy jarayonlarga intilish, topilgan echimlardan qoniqish hosil qilish. Bunda etakchi motivlar – o'zining yangi echimlarini topishga qiziqish, ijodiy faoliyatini tashkil etishga intilishdir, ya'ni o'qituvchilarda ijodkorlik hamda yangilikka intilish motivlari shakllantiriladi;

2) intellektual omil – muammoli ta'lim ko'nikmalarini egallaganligi (muammoni ko'ra bilish, uni shakllantirish, muammoni hal etish yo'llarini topish va hokazolar), fikrlashning kreativligi (nostandart echimlar qabul qiluvchi shaxsning botiniy qobiliyati), moslashuvchanligi hamda tizimlilik, ijodiy tasavvur, modellashtirish, loyihalash, bashorat qilishga, yangi g'oyalarni topishga moyillik. Fan nuqtai nazaridan yuzaga keladigan muammolarni to'g'ri hal qilishda o'qituvchiga berilgan bilimlardan ijodiy tasavvur qilish hamda yangi g'oyalarni topishga intilish seziladi;

3) irodaviy omil – izlanish davomida, modellashtirish hamda o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilish uchun o'z faoliyat yo'lini yaratishda iroda sifatlarini namoyish qilish. Fanlarda berilgan individual topshiriqlarni bajarishda o'qituvchining irodaviy sifatleri va izlanish faoliyatlari shakllanadi;

4) hissiy omil – izlanuvchanlik, kashfiyot va ixtirolarni amalga oshirishga xos hissiyotlarning namoyon bo'lishi, o'quv hamda kasbiy faoliyatda kreativ

echimlarni topish yo'lida ziyrak bo'lish. Bunda o'qituvchidagi emotsional omil shakllanadi;

5) amaliy-predmetli omil – atrofdagilarga g'ayrioddiy bo'lgan xulq egasi bo'lish (yangi axborotlar ichida tez yo'nalish topa olish, noan'anaviy echimlar izlash, fikrlash, harakat va amallarning atrofdagilar uchun kutilmagan yo'nalishda o'zgarishi). Bunda o'qituvchidagi individuallik namoyon bo'ladi;

6) o'z-o'zini boshqarish omili – ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o'z fikrlarini zarur yo'nalishda boshqara olish, yangi echimlar, g'oyalar topish imkonini beruvchi manbalarga intilish, o'z ijodiy faolligini ta'minlash uchun mustaqil ravishda sharoit yarata olish. O'qituvchining ijodkorligini, yangi echimlar va g'oyalar topa olishda mustaqil ishlay olishini ko'rsatadi. Kelajakda o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilarda psixologik-pedagogik komponentlardan biri, bu «esda saqlash» shaxsiy sifatining ma'lum darajada yuqori bo'lishi taqozo qilinadi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan ishlar tuzilishiga ko'ra bir nechta bilimlarning integratsiyasi, o'zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o'z ichiga oladi. Professor T.R.Tolaganov o'z tadqiqotlarida,- «O'qituvchi har doim o'quv materialini nazariy va amaliy o'zaro bog'liq bo'lgan dialogida qatnashadi, chunki o'quv materialiga muvofiq xulosa chiqarishi uchun u o'zining bilimlar blokiga tez-tez murojaat qilib turadi»,- deb ta'kidlagan. Har bir o'qituvchi imkoniyatiga, asosan bilimga bo'lgan intilishiga ko'ra o'zining axborot maydoniga ega bo'ladi. Bu bilimlar tuzilmasiga ko'ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik-pedagogik, falsafiy, fizik-matematik hamda boshqa ko'rinishdagi bilimlar to'plami bo'lib, o'qituvchi qaysi yo'nalishga mos bilimlar kerakligiga tayangan holda, shu mazmundagi bilimlarni axborot maydonidan ajratadi. Bu bilimlarni chuqurlashtirib talab qilingan maqsadda foydalanishga harakat qiladi.

Bu omillar orqali, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishi, usullarini yangilashlari hamda uni yanada rivojlantirishi orqali pedagogik to'siqlarga duch kelmaydi. Shuningdek, ularni malakalari bir muncha ko'rsatkichlarga oshadi va samarali foyda beradi.

“Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Maxsus ma'lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo'lish.
5. O'z sohasida professionallikka erishish.

6. Tajriba to'plash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq. Pedagog yaxshi ishlashini qanday qilib tez va mustaqil ravishda tekshirish mumkin? Muvofiqlikni qanday baholash kerak? Pedagoglarning kompetentligini baholash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tizimdir:

- pedagoglarning malaka darajasi - baholash uchun etalonga mos mezonlar ishlatiladi;
- mehnat unumdorligi va ish sifati;
- shaxsiy xususiyatlarning ta'lim yo'nalishiga muvofiqligi;
- qo'shimcha ko'nikmalar mavjudligi;
- shaxsiy o'sish va kasbiy rivojlanish istagi". [4]

Bu baholash tizimi orqali nafaqat pedagoglar balki, bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi ham o'z kompetentlik darajasini aniqlashtiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayni damda intiluvchan, yuqori salohiyatli, raqobatbardosh o'qituvchilarga talab yuqori hamda zamonaviy ta'lim tizimida bunga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi o'z kompetensiyasini rivojlantirishi orqali, o'z qirralarini namoyon qiladi.

## XULOSA

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishi va uni amaliyotga joriy etishi maktab yoshidagi o'quvchilarga hamohang tarzda qo'llanilishi zarur. Har bir individning o'zlashtirish qobiliyatiga ko'ra o'qituvchi kasb kompetensiyasini qo'llasa natijasi samarali bo'lishga xizmat qiladi. Yangi ta'lim texnologiyalari, o'quv usullari, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun iste'mol etilayotgan innovatsiyalarni o'rganishi bilan birga bu omillar orqali kasb kompetensiyasini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish konsepsiyasiga ega bo'lishlari kerak. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisida kasbiy kompetensiyani shakllantirish, ularning bo'lg'usi o'quv dars faoliyatni barqarorlashtirish, eng yaxshi intellektual ta'lim berish va o'quvchilar aloqalar o'rnatish imkoniyatlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. B.X.XODJAYEV "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti." Darslik.  
- T.: "Sano-standart" nashiryoti Toshkent-2017 yil, 84-94 bet.

[2] Jumanova Fatima Uralovna, “Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish” Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani, 392-398 bet, 2023- yil 2-iyun.

[3] Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018

[4] Dildora Turgunovna Pulatova, Gulmira Rifovna Tojiboyeva, Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot nomli ilmiy maqola, Academic Research In Educational Sciences,209-2015 bet, 2020-yil